

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI



THE CENTRAL BANK  
OF THE REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN

## BANK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH HUQUQINI BERUVCHI

17 – raqamli

# LITSENZIYA

2021 yil "25" dekabr

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021 yil "25" dekabrdaqi 31/10-sonli qaroriga muvofiq

### "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki

( 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy )

quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish huquqiga ega:

1. Pul mablag'larini omonatlariga (depozitlarga) jalb etish;
  2. To'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvoraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
  3. Jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvoraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvoraqlarini ochish hamda yuritish;
  4. Kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
  5. Chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
  6. Jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;
  7. Inkassasiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
  8. Uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
  9. Uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktorning);
  10. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
  11. Aftinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvoraqlarini hamda metallarning egaizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvoraqlarini yuritish;
  12. Qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
  13. Hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
  14. Hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;
  15. Lizing berish;
  16. Qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
  17. Moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;
  18. Aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;
  19. Elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;
  20. Bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.
- Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.**
- Yuqorida keltirilgan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'tatilgan tartib va iqtisodiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.
- Bank 1991 yil "25" iyunda 17 - raqam ostida Banklarni ro'yxatga olish davlat reyestriga kiritildi(gan).

O'zbekiston Respublikasi

Markaziy bankning vakolatli

**R. Zaxidov**

